


Sarhisob: Ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar

// 18.02.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sarhisob-ekologik-barqarorlikni-ta-minlash-bo-yicha-tizimli->



"O'zkimyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida 2025-yil davomida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Yil davomida umumiy qiymati 35,7 mlrd so'mlik 91 ta ekologik chora-tadbir bajarildi.

Ushbu ishlar doirasida korxonalarda chang-gaz tozalash uskunalari ta'mirlandi va ularning samaradorligi oshirildi, ekologik me'yor va talablarga qat'iy rioya etilishi ta'minlandi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida quyidagi muhim ekologik ko'rsatkichlarga erishildi:

- 17,8 ming tonna atmosferaga tashlanma qisqartirildi (shundan 2,1 ming tonnasi toksik tashlamalar);
- 224,8 ming kub metr oqova suv tashlanishining oldi olindi;

- 441,2 ming kub metr artezian suvi iqtisod qilindi;
- 201,7 tonna chiqindi hosil bo'lishi oldi olindi;
- 32,6 ming tonna chiqindi utilizatsiya qilindi.

"Yashil makon" loyihasi doirasida tarmoq korxonalari hududlari va atrofida jami 643 ming tup mevali va manzarali daraxtlar, buta ko'chatlari hamda qalamchalar ekildi.

Mazkur natijalar kimyo sanoati korxonalarida ekologik mas'uliyatni oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini "yashil" tamoyillar asosida modernizatsiya qilish hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida izchil ishlar olib borilayotganini ko'rsatadi.

"O'zkimyosanoat" AJ kelgusida ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash, chiqindilarni qisqartirish va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan loyihalarni izchil davom ettiradi.